

AHOLINI UY-JOYGA BO'LGAN TALABINI QONDIRISHDA QURILISH SOHASIDAGI TASHKILIY-IQTISODIY MASALALAR

Alijonov Jamshid Alijon o'g'li
Renessans ta'lif universiteti
ORCID: 0009-0009-4651-2064
alijonovjamshid69@gmail.com

Annotatsiya. Mamlakatimizda qurilish korxonalari boshqaruvidagi tashkiliy-iqtisodiy holatlar, qurilish qiymatini hisoblashning usullari va ularning uy-joylar narx-navosiga ta'siri. Mazkur maqolada aholining birlamchi ehtiyojlaridan bo'lmish uy-joyga bo'lgan talabni qondirishning imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: aholining o'rtacha oylik daromadi, uy-joylarning bir kvadrat metrdagi o'rtacha narxi, qurilish ishlab chiqarish xarajatlari, qurilish ishlab chiqarishdagi kamchiliklar, qurilish normalari va qoidalari, qurilish qiymatini resurs usulida aniqlash, qurilish qiymatini hajm usulida aniqlash, qurilish tashkilotining tashkiliy tuzilishi.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА В УДОВЛЕТВОРЕНИИ СПРОСА НАСЕЛЕНИЯ НА ЖИЛЬЕ

Алижанов Жамшид Алижанович
Образовательный университет «Ренессанс»

Аннотация. Организационно-экономические ситуации под управлением строительных компаний в нашей стране, методы расчета стоимости строительства, и их влияние на стоимость жилья. В данной статье рассматривается расширение возможностей по удовлетворению спроса на жилье, являющегося одной из первоочередных потребностей населения.

Ключевые слова: среднемесячные доходы населения, средняя цена квадратного метра жилья, затраты на строительную продукцию, недостатки в строительном производстве, строительные нормы и регламенты, определение себестоимости строительства в ресурсном режиме, определение стоимости строительства в размерном режиме, организационная структура строительной организации.

ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC ISSUES IN THE FIELD OF CONSTRUCTION IN MEETING THE POPULATION'S DEMAND FOR HOUSING

Alijonov Jamshid Alijon oglı
Renaissance University of Education

Abstract. Organizational and economic situations under the management of construction companies in our country, methods of calculating the value of construction, and their impact on the cost of housing. This article discusses expanding opportunities to meet the demand for housing, one of the primary needs of the population.

Keywords: the average monthly income of the population, the average price of a square meter of housing, construction production costs, shortcomings in construction production, construction standards and regulations, determining the cost of construction in resource mode, determining the value of construction in size mode, organizational structure of the construction organization.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoniga asosan qabul qilingan "O'zbekiston-2030" strategiyasida hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalgalashirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini yanada oshirishga qaratilgan vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni bajarishda qurilish sohasida mavjud tashkiliy-iqtisodiy muammolarni o'rganish va hal qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Respublikamizda qurilish ishlari ko'lami yildan – yilga oshib bormoqda, aholini uy – joy bilan ta'minlash borasida ham bir qancha ijtimoiy qo'llab – quvvatlash ishlari amalgalashirilmoqda. Shunga qaramay aholi uchun hali – hanuz aholini uy-joy sotib olish masalasida qator kamchiliklar mavjud. Nima sabab uy – joylar narxlari baland va yanada oshib bormoqda? Bu albatta jamiyatimiz uchun muhim savol hisoblanadi. Bu savolga javob izlash, uning sabablarini o'rganish aholining uy – joyga bo'lgan talabini qondirishda yengillik yaratishning birdan – bir yo'li hisoblanadi. Ushbu maqolamizning maqsadi uy-joy qiymatining balandligi sabablarini o'rganish va ularga yechim topishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Qurilish mahsulotlari sifatiga qo'yiladigan talablarni yanada kuchaytirish, qurilish texnologiyasidagi tub o'zgarishlar, mutlaqo yangi qurilish materiallaridan foydalanish, yangi tashkiliy tuzilmalar va boshqaruv usullarini rivojlantirish. Bu islohotlarning barchasi mamlakatimizda qurilish sohasini rivojlantirishga qaratilgan. (Буриев и Усманов, 2020). Jamiyat va iqtisodiyotning zamonaviy innovatsion rivojlanishi sifat o'shining yangi, noan'anaviy yo'nalishlarini ochib beradi. Uy-joy kommunal xo'jaligi samaradorligini oshirishning dolzarb usullaridan biri bu "aqlii" shaharlar va "aqlii" uylarni yaratishdir. Ularni amalgalashirish bosqichma-bosqich va iqtisodiy asoslar asosida amalgalashirishi kerak. (Shavkatovna and Tulkinovich, 2023). Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizning milliy iqtisodiyotida qurilish sohasining o'rni va ahamiyati, Prezidentimiz tomonidan ko'zlangan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarni saqlab qolish ham qurilish sohasidagi olib borilayotgan islohotlar bilan chambarchasi bog'liqligi, hamda statistika boshqarmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari bajarilish bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. (Shavkatovna and Abdixalilovich, 2022). Iqtisodiyotni shakllantirishda korxonalar faoliyatida zamonaviy marketing tushunchalaridan foydalanish usullari. (Musakulovna et al., 2022). Korxonalar boshqaruvining funksiyalari, menejment usullari, axborot va kommunikatsiya, boshqaruv qonunlari va tamoyillari, nizo va stresslarni boshqarish, marketing va tavakkalchilikni boshqarish, tashkilotda boshqaruv maqsadlarining mohiyati, rejalshtirishning asosiy tamoyillari, boshqaruv nazoratining funksiyalari va tamoyillari, tashkilotni boshqarishning tashkiliy tuzilishi (Buriyev va Komilov, 2022).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalgalashirishda ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, ilmiy va umumiyligi tahlil, qiyyoslash, o'zaro solishtirma tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Toshkent shahri, viloyatlar va tuman markazlarida qurib bitkazilayotgan ko'p xonardonli uylarning qiymatini aniqlashda to'g'ri hisoblashlar olib borish aholining uy – joy sotib olish imkoniyatini kengaytira oladigan yagona yechim hisoblanadi. Birinchi navbatda maxsulot narxining oshishiga sabab bo'luvchi omillar aniqlashimiz kerak.

Toshkentda 2024-yilning yanvar oyida ikkilamchi bozordagi uy-joylarning o'rtacha narxi 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan deyarli 20 foizga oshdi, deyiladi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining ko'chmas mulk bozori bo'yicha sharhida.

Har bir maxsulotning narxini belgilashda inobatga olinadigan ishlab chiqarish va boshqa

bir qancha xarajatlari mavjud. Bularga: materiallar va maxsulotlar, mexnat xarajatlari, texnika xarajatlari, transport xarajatlari, ishlab chiqaruvchining boshqa xarajatlari hamda tadbirkorlik foydasi. Qurilish ishlab chiqarishda ham huddi shunday hisoblashlardan keyin xonadonlarning narxi belgilanadi.

- ishlab chiqarish uchun kerakli maxsulotlar va homashyolar;
- mehnat xarajatlari;
- texnika va transport xarajatlari;
- saqlash xarajatlari;
- quruvchining boshqa harajatlari;
- tadbirkorlik foydasi;

Ushbu xarajatlar har bir ishlab chiqarish jaryonida mavjud bo'lib, loyiha – smeta hujjatlarini tayyorlash jarayonida faqatgina shu xarajatlarni optimal ravishda to'g'ri yo'lga qo'ya olsak loyihaning taxminiy bahosini maksimal darajada aniqlik bilan ishlab chiqishimiz mumkin. Bizda bu jarayonlarni olib borish uchun albatta yangi ish turlari, yangi mashina – mexanizmlar narxlari, yangi turdagи materiallar keltirilgan qurilish me'yор va qoidalari hamda uning elektron dasturi kerak bo'ladi. Buning uchun keraklicha vaqt va yetarlicha mutaxassislarning mehnati talab etiladi.

To'g'ridan –to'g'ri hisoblashlarga yuzlansak, aholimizning daromadi va uy – joylarning narx – navosini taqqoslash anchagina mushkul masala hisoblanadi. Masalan, bugungi kunda Respublikamizda 2024-yilning yanvar-mart oylari kesimidagi o'rtacha ish haqi 4 919 000 so'mni tashkil etadi. Yangi qurib bitkazilayotgan kop xonadonli uylarning narxi esa bir kvadrat metri o'rtacha 6-7 mln so'm atrofida. Agar bir oilaga o'rtacha 60 kvadrat metrli xonodon talabi bo'lsa uning bahosi taxminan 400 mln so'mni tashkil etadi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, aholimizda iste'mol hamda jamg'arish ko'rsatkichlari nisbati anchagina farqli hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan joriy yil 29-yanvar kuni 2024 yilda uy-joy, qurilish, kommunal xo'jaligi, transport va ekologiya sohalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida qurilish sohasida davlat dasturlari doirasida belgilab berilgan vazifalarning ijrosi muhokama qilindi. Yig'ilishda 2024-yilda uy-joy, qurilish, kommunal xo'jaligi, transport va ekologiya sohalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar ko'rib chiqilgan. Ta'kidlanishicha, bu kompleks xalq eng ko'p norozi bo'lib murojaat qiladigan sohalardan biri ekani aytib o'tilgan. Qayd etilganlar orasida qurilish sohasida yangi zamonaviy qurilish standartlarini joriy qilib, qurilish normalarini yangilash ham ko'zda tutilgan.

Bu yil investitsiya dasturi doirasida 1 ming 637 ta infratuzilma obyektini qurish belgilangan. Lekin soha yoki hudud rahbarlari budget mablag'larini samarali ishlatish, qurilishlar sifatini ta'minlash bo'yicha namuna bo'ladigan tizim yaratmagani qayd etilgan. Qurilishlarga ajratilgan budget mablag'larini maqsadsiz ishlatish, talon-taroj va o'g'rilik holatlari ko'rsatib o'tilgan. Ayrim quruvchi tadbirkorlarning yashirin ishlashiga yoki bunday ishlashga majbur qiladigan shart-sharoitlar borligi ta'kidlandi. Masalan, bugungi kunda loyiha tashkilotlari obyekt qiyamatini imkon qadar "shishirishga" harakat qilayotgani qayd etilgan. Sababi, loyiha qancha qimmat bo'lsa, loyihachi shuncha ko'p pul oladi. Shu bois, aksariyat loyihalarda keraksiz xizmatlar, ortiqcha hashamat qo'shib kiritilmoqda. O'tgan yilda loyihalarda 3 trillion so'mlik bunday keraksiz xarajatlar oldi olingan. Aksincha, iqtisod qilishga kelganda, quruvchilarning ish haqi va asosiy qurilish materiallari narxi bozordan past narxlarda hisoblanmoqda.

Bularning hammasi quruvchi-pudratchilarni "obnal" va "o'g'irlilik" qilishiga, sifatsiz qurilish materiallarini ishlatishiga sharoit yaratayotgani, "yashirin" qurilish materiallari bozori vujudga kelgani qayd etildi.

1-jadval

2023-yilning I yarmida ikkilamchi uy-joylar bozorining 1 kv.m. uchun o'rtacha narxlari(ming so'm, o'zgarishlar% oy/oy, yil/yil)

Hudud	2023						2023(%)					
	yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun
Toshkent shahri	10729	10858	10979	11174	11261	11315	27,2	23,5	18,7	21,0	21,9	22,7
Respublika Qaraqalq'iston	3667	3785	3891	3855	3885	3806	15,4	15,4	18,2	20,5	18,6	12,6
Toshkent viloyati	5738	5878	6094	6326	6484	6646	30,0	32,1	30,9	34,5	36,0	29,7
Sirdaryo viloyati	3960	4239	4248	3962	4303	4197	27,1	23,8	29,6	15,8	25,5	22,2
Jizzax viloyati	4095	4254	4189	4165	4015	4212	25,8	34,2	27,9	18,7	10,9	17,3
Samarqand viloyati	7307	7405	7467	7544	7638	7840	21,0	24,2	19,0	20,7	23,2	26,4
Farg'ona viloyati	4284	4171	4252	4268	4447	4494	28,8	34,0	28,7	24,9	21,4	32,4
Namangan viloyati	4892	4726	5041	5151	5449	5220	24,9	12,4	26,8	20,0	19,2	30,2
Andijon viloyati	4729	5496	5883	5852	5862	5866	16,5	23,5	31,1	38,7	34,6	37,5
Qashqadaryo viloyati	4133	4415	4366	4555	4284	4667	34,5	35,5	28,5	36,5	23,6	39,7
Surxandaryo viloyati	4587	4762	4710	4848	4880	4870	14,4	21,7	14,1	16,5	15,5	10,8
Buxoro viloyati	4663	4781	4813	4852	5142	5121	23,8	26,4	20,6	18,9	25,4	23,2
Navoiy viloyati	5970	6264	6422	6515	6965	7115	31,6	36,8	31,3	33,3	44,5	43,6
Xorazm viloyati	3851	3947	3927	3886	4223	4337	23,4	24,8	11,9	19,3	28,7	26,3
Respublika (%)	2,3	2,6	1,8	1,3	2,2	1,1	26,2	26,9	24,0	25,3	25,8	27,2

Hokim va prokurorlar vaziyatga e'tiborsizligi qattiq tanqid qilinib, ularning bu boradagi qat'iy javobgarligi belgilandi.

Ta'kidlanishicha, amaldagi loyihalash jarayonlari va qurilish ishlari "resurs usuli"ga asoslangan. "Resurs" usulida 1 ta maktab qurish uchun qancha ishchi kerak, qancha yoqilg'i va nechta texnika ishlataladi, texnikaning turi qanaqa bo'lishi kerak, degan yuzlab shartlar kiritilgan.

"Hajm usuli"da esa pudratchidan yakuniy natija so'raladi. Muhimi, quruvchi obyektni o'z vaqtida va sifatli topshirsa bo'ldi. Bundan tashqari, loyiha, tender, qurilish va obyektni qabul qilish bilan bog'liq barcha jarayonlarda korrupsiya holatlari uchrab turibdi. Endilikda loyiha qilishdan boshlab, obyektni foydalanishga topshirishgacha bo'lgan barcha jarayonlar ham, ularning nazorati ham yangicha tashkil etiladi.

Eng avvalo, kelgusi yil 1-yanvardan barcha loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, ishlarni amalga oshirish, shuningdek, ularni qabul qilishda "resurs usuli"dan voz kechilib, "hajm usuli"ga o'tiladi.

Bu tartib 1-iyuldan yo'l, ichimlik suvi va ko'prik qurilishi loyihalarida joriy qilinishi belgilandi.

Shu qatorda aytib o'tish kerakki, videosellektorda eskirgan 105 ta qurilish normalari ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ishlab chiqilishi aytilgan.

Ma'lumot o'rnidagi aytsak, o'tgan 2023-yilda obyektlarni o'rganilganda 3716 ta holatda 77 mlrd so'mlik ishlar sifatsiz, 1639 ta holatda esa qo'shib yozilgan 74 mlrd so'mlik ishlar aniqlanib, bartaraf etilgan.

Respublikamizda 2024-yilda 1724 ta obyekt qurilish-ta'mirlash ishlari uchun 20 trillion 24 milliard so'm mablag' ajratiladi.

Buning natijasida 2023 va 2024 – yilgi dasturlardagi qurilish obyektlarining loyiha – smeta hujjatlarini tayyorlashda 4 trillion soʻmlik ortiqcha harajatlarni oldi olinadi. Qoʻpol qoida buzilishi holatlari yuzasidan 673 ta jinoyat ishi qoʻzgʼatilib, 5,5 minga yaqin jismoniy shaxslarning buzilgan huquqlar qayta tiklandi.

Statistika agentligi maʼlumotlariga koʼra, 2024-yil 1-mart holatiga qurilish sohasida 53 282 ta korxonalar roʼyxatdan oʼtgan.

2-jadval

Yillar	2020	2021	2022	2023	2024
Soni	39 322	44 320	46 433	50 324	53 282

2024-yil 1-mart holatiga qurilish sohasida soliq qarzi (100 mln soʼmdan yuqori) mavjud boʼlgan korxonalar soni 973 ta boʼlib, ularning jami soliq qarzi 735,3 mlrd soʼmni tashkil etgan.

Shundan 284,6 mlrd soʼmi, yaʼni 38,7 foizi 10 ta korxona hisobiga toʼgʼri keladi.

Bu qarzdorliklar albatta Davlatimiz iqtisodiyotiga oʼz taʼsirini koʼrsatmasdan qolmaydi. Qurilish tashkilotlarida tashkiliy tuzilmaning toʼgʼri tashkil etilishi yaʼni qurilishni korxonalarini boshqarishni, ichki tuzilmasini shakllantirishni, hodimlar malakasini oʼz vaqtida oshirish va attestatsiyadan oʼtkazish masalasini.

Oʼtgan 2023-yilning soʼngi toʼrt oylarida Respublikamizda bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hisobdagisi quyidagicha: (mlrd. Soʼmda)

3-jadval

Sentabr	107 793,3
Oktabr	119 589,0
Noyabr	132 386,9
Dekabr	149 864,1

Qurilish korxonalarining Respublikamizda tashkil topishi yildan – yilga oʼsib bormoqda bu koʼrsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 5,9 foizga oshgan. Mamlakatimizda qurilish korxonalarining tashkiliy tuzilmasini tashkil etish va normativ hujjatlari asosida tartibga solish. Tashkiliy tuzilmaning korxona faoliyatiga taʼsiri juda muhim boʼlib, u korxonaning ish faoliyatini qay darajada yurishi bilan bevosita bogʼliq. Qurilishni tashkil etishda hodimlar faoliyatiga eʼtibor berish va ularning malakasini oshirishni yoʼlga qoʼyish boʼyicha amalgalashirilayotgan ishlarni davlat tomonidan nazoratga olinishi qurilish montaj ishlarini sifat koʼrsatkichlarini yanada oshirishning asosi hisoblanadi.

Personal tuzilma – Korxona personali murakkab, oʼzaro bogʼliq tuzilmaga ega, Tashkiliy tuzilma — boshqaruv boʼgʼinlarining oʼzaro bogʼliq, oʼzaro boʼysunuvchi tarkibidir.

Funksional tuzilma — boshqaruv funksiyalarining rahbariyat va alohida boʼlinmalar oʼrtasida taqsimlanishini aks ettiradi. Rol tuzilmasi — xodimlarning ishlab chiqarish jarayonidagi ijodiy ishtiroki, jamoadagi oʼzaro munosabatlar xususiyatlaridir.

Ijtimoiy tuzilma — mehnat jamoasining ijtimoiy xusu- siyatlari (jinsi, yoshi, millati, kasbi, malakasi, maʼlumoti va hokazolar)ni ifoda etadi. Shtatlar tuzilmasida boʼlinmalar tarkibi, lavozim va xizmat vazifalari roʼyxati, mansab maoshlari va ish haqi miqdori aks etadi. Personal tuzilmasida, shuningdek, quyidagi tushunchalar ham mavjuddir: Boshqaruv boʼgʼini — muayyan bosqich (daraja)dagi tashkiliy tuzilmaning mustaqil qismi hisoblanib, boshqaruv apparati va ishlab chiqarish boʼlinmalaridan iboratdir. Boshqaruv bosqichi (darajasi) — korxona tashkiliy tuzilmasi yuqori boʼgʼinlari (bosqich, darajalari). Boshqaruv apparati — boshqaruv tizimining tegishli boʼlinma, xizmatlarga rahbarlik qilish, faoliyatlarini muvofiqlashtirish huquqiga ega xodimlar jamoasidir. Tarkibiy boʼlinma — tashkiliy boʼlinma toʼgʼrisidagi nizom asosida boshqaruv boʼgʼinining mustaqil qismidir. U funksional va ishlab chiqarish tarkibiy boʼlinmalariga boʼlinadi.

Funksional tarkibiy bo'linma — boshqaruvning muayyan funksiyalari (masalan, ishlab chiqarishni tayyorlash, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy rejalashtirish), vazifalarini amalgaga oshiruvchi boshqaruv apparatining mustaqil qismi hisoblanadi. Uning faoliyatida pirovard natija — boshqaruv qarorlari tayyorlashdir.

Ishlab chiqarishning tarkibiy bo'linmasi — ishlab chiqarishni tezkor boshqarish vazifalarini bajaruvchi hamda moddiy mahsulot ishlab chiqarishni (uy-joylar, tayyor mahsulotlar, yuk tashish va boshqalar) ta'minlovchi boshqaruvning mustaqil bo'g'inidir. Korxona ishlab chiqarish faoliyatida ro'y beradigan tashqi omillar yoki shartlarni ham hisobga olishi lozim.

Personalni rivojlantirish inson salohiyatini shakllantirish va uni muttasil oshirib borishga da'vat etadi. Bu jarayon shunday tashkil etilishi kerakki, inson butun mehnat faoliyati davomida kasbiy ta'lif va qayta tayyorlash orqali o'z bilimlari va ko'nikmalarini takomillashtirib borishga intilishi kerak. Inson salohiyatining sifati uning mansab lavozimlari har bir bosqichida o'qish, o'zini — o'zi o'qitish, kasbiy tajribani umumlashtirish bosqichlarida ushbu salohiyat tegishli tarkibiy qismlari sifat jihatidan qanday shakllanganligiga bog'liq bo'ladi. Keyingi yillarda bozor munosabatlari va axborot texnologiyalari o'ta jadal sur'atda rivojlanayotganligi tufayli personal rivojlanishini hamda uning raqobat kurashidagi rolini qabul qilish sezilarli darajada o'zgardi. Endilikda bu masalaga kompaniya intellektual kapitalini o'stirishga qaratilgan boshqaruv tarzida qaralmoqda. Bundan asosiy maqsad — faqatgina xodimlarda o'zini rivojlantirishga qiziqish uyg'otibgina qolish emas, balki ushbu jarayonni korxona faoliyatining tarkibiy qismiga aylantirish, lozim degan xulosaga kelinmoqda. Shuning natijasida personalni rivojlantirish investitsiya bilan uzviy bog'liq holatga aylanadi. Ya'ni, personalni rivojlantirish sarf-xarajatlar moddasidan investitsiya obyekti darajasiga ko'tarildi. Har qanday investitsiyalar kabi personalni rivojlantirish investitsiyalari ham sarmoya samara-dorligini doimiy baholab borish personalni rivojlantirish uchun investitsiyalar korxona samaradorligini bugungi kunda qanday oshirilganligi va kelajakda qanday oshirilishini baholashni taqozo etadi. Personalni rivojlantirishning mohiyati shundaki, insonlar kompaniya yoki firmanın asosiy raqobat boyligi hisoblanadi. Ulardagi salohiyat korxona muvaffaqiyatining strategik ahamiyatga ega omili bo'lib, uning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini belgilab beradi. Xorijiy firmalarning mutaxassislari personalni rivojlantirishning turli uslublari samaradorligini tadqiq etar ekanlar, kutilmagan xulosaga keladilar: katta yoshdagagi xodimlar ham xuddi bolalardek o'qishar ekan. Ya'ni, kompaniya va firma rahbarlari, menejerlar, mutaxassislar o'zlarini bilmaydigan narsani egallashlari talab etilgandagina o'qish xohishini bildirar ekanlar. Xodimlarga xizmat vazifalari kengaytirilgan yangi lavozimlar taklif qilinishi personalni rivojlantirishning eng samarali usuli ekan. Insondan yangi, ilgari unga noma'lum bo'lgan ishni bajarish talab etilganda, u kasbiy rivojlanishda sifat jihatidan sakrash qilar ekan

Kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish. Kadrlarni baholashning alohida turi - bu kadrlarni attestatsiyadan utkazishdir. Attestatsiyani asosiy maqsadi - xizmatchining egallab turgan lavozimiga loyiqligini aniqlashdan iboratdir. Agar u mazkur lavozimga loyiq deb topilsa, unda uni yana yuqori lavozimga ko'tarish imkonini qidirish kerak bo'ladi. SHunday qilib, attestatsiyani uning mehnat faoliyatiga berilgan ob'ektiv baho, deb bilish mumkin. Bir qator holatlarda uning kasb mahoratini rag'batlantirish vositasi sifatidan unga eng yuqori razryad (malaka) berilishi, yuqori oylik maoshi tayinlanishi mumkin. Nima uchun xodimlarni attestatsiyadan o'tkazib turish kerak? Odadta attestatsiyani direktor tayinlagan maxsus attestatsiya komissiyasi o'tkazadi. Uning tarkibiga bo'lim boshliqlari, jamoa tashkilotlarining vakillari, mutaxassislar va boshqalar kiradi. Hozirgi vaqtida attestatsiya ikki bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqich - mehnat jamoasi attestatsiya qiladi. Ikkinci bosqich - maxsus komissiya attestatsiyani o'tkazadi. Attestatsiyani 3-5 yilda bir marta o'tkazilishi mo'ljallanadi. Attestatsiya faqat muhandis - texnik xodimlar, mutaxassislar, quyi bo'g'in rahbarlari bilimini baholash maqsadida o'tkaziladi. Attestatsiyaning aniq ma'nosi - uni o'tkazish usuli va shakli tarmoq, ishlab chiqarish, xususiyatiga, boshqaruv bo'linmalarini xususiyatiga, ixtisoslik turiga,

ishchilar kasbiga qarab turli bo'ladi. 44 Har qanday attestatsiya o'z ichiga quyidagi o'lhash usullarini oladi:

1. Attestatsiyadan o'tuvchi qanday ish bajaradi.
2. O'tgan davrdagi ishning sifati.
3. Ishga munosabati.
4. Mehnat intizomiga rioya qilishi.

5. Jamoa faoliyati natijasiga xizmatchining qo'shgan ulushi. Kadrlar ishida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tayyorlash markaziy vazifa hisoblanadi.

Kadrlar ishini takomillashtirish. Korxona faoliyatini tashkil etish kadrlarning salohiyatiga bog'liq. Shunday ekan ularning ishini tashkil etish va takomillashtirib borish zaruriyati yuzaga keladiki, chunki bozor muhitida raqobat mavjud. Kadrlar korxona tarkibida faoliyat ko'rsatuvchi turli kasb guruhlariga kiruvchi ishchilardir. Korxona miqyosida ishlayotgan kadrlarni mehnat resurslari deb ham yuritish mumkin. Ulardan qay darajada unumli va sifatli foydalanishiga qarab korxonaning ishlab chiqarish natijalari va raqobatbardoshligi belgilanadi. Rahbarlar odatda kadrlarni boshqarishda har tomonlama ko'rsatkichlarni hisobga olishlari kerak bo'ladi. Chunki kadrlar masalasi doimo korxona miqyosida asosiy muammolardan biri bo'lib kelgan. Korxonaning kadrlar tarkibi va uning o'zgarishi miqdor va sifat xarakteriga ega bo'ladi hamda quyidagi nisbiy ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi:

- korxonada muayyan davr ichidagi xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha soni;
- korxonadagi umumiy xodimlarga nisbatan ayrim bo'linmalarda ishlovchi kadrlarning solishtirma miqdori;
- ma'lum davr ichida korxona xodimlari sonining o'sish sur'ati;
- korxona ishchilarining o'rtacha razryadi;
- korxonada ishlovchilarning umumiy soniga nisbatan oliy va o'rta ma'lumotga ega bo'lganlarning solishtirma miqdori;
- korxona rahbarlari va mutaxassislarining o'z ixtisosliklari bo'yicha o'rtacha ish staji;
- kadrlarni ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish bo'yicha qo'nimsizligi va boshqalar.

Kadrlar sifati ularning kasb malakasi va toifasining o'sib borishi bilan belgilanadi. Bunga rahbarning o'zi ham e'tibor berib borishi zarur. Korxona miqyosida kadrlarning sifatli mehnat qilishi ham muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan ularning ishini nafaqat tashkil etishda, balki takomillashtirib borishda ham zarur ishlarni aynan rahbarning o'zi amalga oshirishi darkor. Kadrlar ishini takomillashtirib borish uchun sizningcha nimalarga e'tibor berish kerak? Kadrlar ishini takomillashtirib borish birinchi navbatda quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- rahbar tomonidan kadrlar ishini takomillashtirib borishga bo'lgan e'tibori;
- korxona miqyosida ishga doir yangiliklarni kadrlar tomonidan o'zlashtirib borilishi;
- korxonada yangi texnika-texnologiyalarni joriy etish darajasi;
- kadrlarning mavjud muhitdagi o'zgarishlarga bo'lgan qiziqlishi va ularni to'g'ri o'zlashtira olish qobiliyati. Agar rahbar shaxs kadrlar ishini takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'lamay borsa, bunday korxonada ishlab chiqarish jarayonlari susayib boradi, mehnat unumдорligi pasayadi. Bunday korxonalar bozor iqtisodiyotidagi o'zgarishlarga bardosh berolmay qoladi. Natijada inqirozga tomon yo'l tutadi.

Xulosa va takliflar.

Qurilish tashkilotlari tomonidan yaratilayotgan mahsulotlar hajmining milliy iqtisodiyot yalpi daromadidagi ulushi doimiy ravishda ortib bormoqda. Bu tarmoqda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar hamda mamlakat iqtisodiyotining jadal taraqqiyoti natijasidir. Shuni qayd etish kerakki, qurilish tarmog'i barcha tadbirkorlik tuzilmasining ko'pchilik qismiga to'g'ri keladigan xususiy korxonalar sonining o'sish tendensiyasi kuzatilmoque. Bunday vaziyatda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash, me'yoriy qonun hujjatlarda belgilangan tartibda ish yuritish, eskirgan norma va qoidalarni zamon talablariga moslagan holda ishlab chiqish, kadrlar bilim va malakalarini yanada oshirish kabi

bir qancha islohotlar talab etiladi. Mutaxassislarning bilim va malakalarini oshirish orqali qurilib bitkazilayotgan uy-joylarning sifatini yanada yaxshilash, narx-navosini me'yorlashtirish, qurilish korxonalari o'rtasida sog'lom raqobatni vujudga keltirish mumkin deb ta'kidlasak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Buriyev X.T., Komilova M.Sh. (2022) *Qurilishda menejment* // Darslik. Toshkent.

Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni [Elektron resurs]. URL: https://lex.uz/docs/-_5130468

Musakulovna, Rakhmonova F., Komilova M. Sh., and Shernazarov T. T. (2022) "USE OF MARKETING CONCEPTS IN THE ACTIVITY OF ORGANIZATIONS IN THE CONDITIONS OF FORMING AN INNOVATIVE ECONOMY." *World Economics and Finance Bulletin* 17, 55-56.

Shavkatovna, K. M., & Abdixalilovich, A. J. (2022). *The role of employees in ensuring the labor potential of enterprises. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 2(12), 135-137.

Shavkatovna, K. M., & Tulkinovich, S. T. (2023). *Improvement of activities of housing and utilities in the republic of uzbekistan. World Bulletin of Management and Law*, 22, 25-27.

Shavkatovna, Komilova M. and Olimova L. E. (2022) "WAYS OF EFFICIENT USE OF LABOR RESOURCES IN THE COUNTRY." *WorldEconomics and Finance Bulletin* 7 85-90.

Буриев Х.Т., Усманов И.А. (2020) Пути совершенствования организационно-экономического механизма повышения качества строительства: монография// Ташкент. 210 с.